

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2023




5/2023

<https://buxdu.uz>

E-ISSN 2181-1466

9 772181146004

ISSN 2181-6875

9 772181687004

 @buxdu_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 www.buxdu.uz

Mashrapova G.A.	Hayotiy-maishiy ertaklarda safar motivi: semantikasi va poetik vazifalari	235
Muxidillayev F.F.	Erkin Vohidov she'rlarida ritorik so'roq gaplarning lingvopoetik talqini	240
Qudratova M. Sh.	Асқар Маҳкам шеъриятида мавзу ранг-баранглиги	244
Saidova N.A.	Joan Rouling ijodida ingliz bolalar fentezi janri taraqqiyoti	249
Shamsiddinova S.B.	Ajdaho kultining genezisi va uning "Gilgamish" eposida tutgan o'rni	253
Saidova N.M.	Rahim Vohidovning "Navoiy va ilohiyot" tadqiqotida germenevtik yondashuvning ustuvorligi	258

MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK * TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ**

Eshonqulov H.P., Hamidov A.H.	Muallif tahririda ayrim baytlarning tushirilishi	266
--------------------------------------	--	-----

"NAVOIY GULSHANI"

Bekova N.J., Saidova M.Y.	"Qoshi mehrobida vaslin istab aylarmen duo..."	270
----------------------------------	--	-----

FALSAFA, HUQUQ VA SIYOSATSHUNOSLIK * PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ**

Кахарова М.	Analysis of social and spiritual research conducted on middle ages in Kazakhstan	273
--------------------	--	-----

PEDAGOGICS

Bakhromova A.A.	Methods of teaching physics using various pedagogical technologies	278
Nurolliyev N.Sh.	Using modern methods in teaching physics in technical fields	287
Salixova N.N.	Madaniyatlararo muloqotda ingliz tilini o'qitishning kommunikativ kompetensiyalari	292

TARIX * ИСТОРИЯ *** HISTORY**

Ergashov Z.B.	Qoraxoniylar davlatining davlat boshqaruvi tizimi va madaniyati	298
Pulatova M.T.	"Buyuk Temurlang" asarining yozilishiga asos bo'lgan buyuk sarkarda Amir Temur shaxsi XVI asr tarixchilari talqinida	302

CONGRATULATION * QUTLOV *** ПОЗДРАВЛЕНИЕ**

Хамидов Обиджон Хафизович	Бухоро замонавий иқтисодиёт илмий мактабининг асосчиси Наврӯз-Зода Бахтиёр Негматович 70 ёшда	311
--------------------------------------	---	-----

MUALLIF TAHRIRIDA AYRIM BAYTLARNING TUSHIRILISHI

Eshonqulov Husniddin Pirimovich,

BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari doktori (DSc).

husniddin.eshonqulov72@mail.ru, h.p.eshonqulov-

Hamidov Azimjon Hayotjon o'g'li,

BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
hamidov_azimjon@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning dastlab "Badoyi' ul-bidoya" devonidan o'rinn olib, keyinchalik "Xazoyin ul-maoni"ni tartib berish jarayonida 8 baytli g'azallarning 7 baytli g'azal holida kelishi xususida so'z yuritiladi. "Badoyi' ul-bidoya"dagi o'nga yaqin g'azalning keyinchalik "Xazoyin ul-maoni" devonlariga kiritilganida, ularning har biridan bittadan tushurilib qoldirilgani baytlar tarixiy-qiyosiy metoddan aniqlanib, bular muallif tahririning samarasi ekanligiga e'tibor qaratiladi. Buning uchun Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" debochasida "Xazoyin ul-maoni"ning tartib berish jaroyoni xususida bildirgan fikrlari, g'azallarining hajmi xususidagi qit'asiga va boshqa ma'lumotlarga tayaniladi. Shuningdek, ijodkorning tahrir jarayonida har bir bayti alohida adabiy manzarani ifodalab, g'azaldagi baytlarni uning vazn, qofiya, radif singari poetik unsurlari birlashtirib turishidan hosil bo'lgan parokanda g'azallar ustida olib borgani, buning uchun shoirga tamsil, irsolis masal singari badiiy tasvir vositalari yoki lirik chekinishga aloqador badiiy manzara hosil qilgan baytlarning qo'l kelgani tahlillar asosida aniqlashtiriladi.

Kalit so'zlar: tamsil, irsolis masal singari badiiy tasvir vositalari yoki lirik chekinishga aloqador badiiy manzara hosil qilgan baytlar.

ОПУСКАНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ БАЙТОВ В АВТОРСКОМ РЕДАКТИРОВАНИИ

Аннотация. В статье рассказывается о появлении 8-байтовых газелей в виде 7-байтовых газелей в процессе упорядочивания "Хазойин уль-Маони" Алишера Навои, первоначально из Девона "Бадойи уль-бидоя", и о замене определённых байтов в отредактированной газели. Когда около десяти Газелей в "Бадойи уль-бидоя" позже были включены в девон "Хазойин уль-Маони", по одному из каждого из них были опущены и байты определены историко-сравнительным методом, с акцентом на то, что они являются продуктом авторского редактирования. Для этого опирается на мнение Алишера Навои в предисловии "Гаройиб ус-сигара" о процессе упорядочения "Хазайна уль-Маони", на характер объема его газелей и другие данные. А также в процессе редактирования каждый стих автора представляет собой отдельную литературную сцену, которая определяется на примере газелей в парокане, образованных сочетанием стихов в газели с ее поэтическими элементами, такими как вес, рифма, радиф, изначально написанная без похвалы, впоследствии превратилась в хвалебную газель.

Ключевые слова: газель, текст, редакция, стих, «Бадайи ул бидая», «Хазайн ул Маоний», «Наводир уши шабаб», «Фавойид ул кибар».

DROPPING OF CERTAIN BYTES IN THE EDITING OF THE AUTHOR

Abstract. In the article, Alisher Navoi's 8-verse ghazals became 7-verse ghazals and the place of specific verses in the edited ghazal during the process of arranging Alisher Navoi's "Badoyi' ul-Bidaya" book and later "Khazayin ul-Maani" exchange is discussed. When about ten ghazals from "Badayi' ul-Bidaya" were later included in "Khazayin ul-Maani" divans, one verse was omitted from each of them. For this purpose, Alisher Navoi's comments on the arrangement process of Khazayin ul-Maoni in the preface of "Garayib us-sigar" are relied on, the volume of his ghazals and other information. Also, in the process of editing, each stanza of the artist represents a separate literary scene, and the stanzas in the ghazal are carried over the ghazals in the chaos created by the combination of poetic elements such as weight, rhyme, and radif. The reason for turning into a ghazal is specified on the basis of examples.

TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY

Key words: *ghazal, text, edition, couplet (in poetry consists of two rhyming lines), “Badayi ul biday”, “Khazain ul Maoniy”, “Navodir ush shabab”, “Favoyid ul kibar”*

Kirish. G‘iyosiddin Xondamir Alisher Navoysi haqida yozilgan “Makorim ul-axloq” nomli asarida ulug‘ shoirning davlat ishlaridan bo‘sh bo‘lgan aksariyat vaqtlarini o‘zi yozgan, xattotlar tomonidan ko‘chirilgan asarlarini tahrir qilish bilan mashg‘ul bo‘lganini ta’kidlaydi [1, 62-63]. Alisher Navoiyning o‘zi ham “G‘aroyib us-sig‘ar” “Debocha”sida umri davomida yozgan she’rlarini g‘oyaviy-badiiy jihatdan “*takmil rishtasig‘a*” [2, 16] tortilgani, ularni jiddiy tahrirdan o‘tkazib, “Xazoyin ul-ma’oni”ni tartib bergani, buning uchun ellik-olmishtacha, ba’zan yuztacha qayta ko‘rib chiqilgan g‘azallarning sulton Husayn Boyqaro nazaridan o‘tkazib borganini e’tirof etadi [2, 16-17]. Ushbu ma’lumotlar ulug‘ shoirning “Xazoyin ul-maoniy” tartib beriladigan 1492-1498-yillarda 50 yoshigacha ijod etilgan lirik she’rlarini jiddiy tahrirdan o‘tkazgani yoki ularni Husayn Boyqaro tomonidan boshqarilgan oliy majlislarda [3, 156-157] shoirning ishtirokida tahrir etilganini dalillaydi. Bu ma’lumotlar asosida lirik she’rlar, xususan, g‘azallar ustida muallif tahriri amalga oshirilgani bir qator adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etilgan [4, 152-155; 5,6;7]. “Badoyi” ul-bidoya”dagi g‘azallar “Xazoyin ul-maoniy”dagi matni bilan solishtirilganida, ulardan 34 g‘azalda 8 baytli g‘azalning 7 baytga aylantirilgani kuzatiladi. Keyingi devonlarda g‘azal tarkibidan o‘rin olmagan baytlarning tahrir samarasi ekanligini tarixiy-qiyosiy metod va badiiyat tamoyillari asosida o‘rganish ulug‘ shoirning lirik she’rlar ijod etishdagi ijodiy evolyutsiyasini, shuningdek, tahrirdagi talabchanligining muhim tamoyillarini aniqlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Alisher Navoysi “Badoye’ ul-vasat” devonidan o‘rin olgan quyidagi qit’asida g‘azallarlarining hajmi haqida ham ma’lumot keltiradi:

Navoiy she’ri to ‘qquz bayt-u, o‘n bir bayt, o‘n uch bayt

Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.

Bukim albatta yetti baytdin o‘ksuk emas, ya’ni

Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin [10, 509].

Ushbu qit’aning ahamiyatlari jihatni shundaki, u “Badoye’ ul-vasat”dan o‘rin olgan. “Ilk devon” 391 g‘azal, 1 mustazod, 1 muxammas va 41 ruboiydan tarkib topgan bo‘lib, unda qit’ a namunasi uchramaydi. “Badoyi ul-bidoya” tarkibidagi qit’alar orasida ham ushbu qit’ a o‘rin olmagan. “Navodir un-nihoya” esa g‘azallardan tarkib topgan. Ma’lum bo‘ladiki, mazkur qit’ a shoirning dastlabki devonlari tartib berilgandan so‘ng ijod etilgan. Ayni choqda qit’ada “*Navoiy she’ri*” deyilganda, g‘azallar nazarda tutilganligi sezilib turadi. Negaki, bunday tuzilishga ega bo‘lgan lirik janrlar sifatida g‘azallargina ko‘z oldimizga keladi. Qit’aning mazmunidan ayonlashadiki, shoir g‘azallari osmon yetti rutba – maqom, ya’ni qavatdan iborat bo‘lganidek, ular ham yetti baytdan kam tuzilishga ega emas. Aytish mumkinki, ular yetti, to‘qqiz, o‘n bir yoki o‘n uch baytdan tarkib topgan. Ayni mantiqdan kelib chiqib, ulug‘ shoir dastlabki devonlardagi sakkiz baytli g‘azallarni yetti baytli shaklga keltirish uchun qilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Jumladan, “Badoyi” ul bidoya” va “G‘aroyib us sig‘ar” tarkibidagi “*Qosh-u ko‘zungni munajjim chunki ko‘rdi beniqob*” [8. 70-71], “*Chok bo‘lg on ko‘ngluma qilmoq iloj oson emas*” [8. 228-229]; «Badoyi’ ul bidoya” va “Navodir ush shabob” tarkibidagi “*Donayi ashkimki yog‘mog‘lig’ bila afsonadur*” [8. 174-175], «Badoyi’ ul bidoya” va “Favoyid ul kibar” tarkibidagi “*Har niyoz-u ajzkim bu joni nishodimda bor*” [8. 171-172], “*Savsaniy to‘n birla ul qad savsani ozod erur*” [8. 187-188], misrasi bilan boshlanuvchi g‘azallar dastlabki devon tarkibida sakkiz baytdan tashkil topgani holda, “Xazoyin ul maoniy” kuliyyoti tarkibidagi devonlardan yetti baytli ko‘rinishda o‘rin olgan. Ushbu g‘azallarning quyida keltirilgan beshinchli baytlari tushirilib qoldirilganligi e’tiborni tortadi:

Garchi ishq o‘tida ko‘nglumni o‘qungg‘a shishlading,

Garm bo‘lmakim, hanuz ne six kuymish, ne kabob [8. 70-71].

Ushbu baytda lirik qahramon ma’shuqaga murojaat etib: “*Garchi ko‘nglimni ishq o‘ti ustida kabob kabi sixga torgan bo‘lsang ham, bundan hayron bo‘lmaginki, hanuz ne six na kabob kuydi*” – deya ko‘ngli tamoman yonib ketmaganini, bunday izardiroblardan hajr o‘tida ko‘p o‘rtanishga odatlangan ko‘ngilga ayni holning ta’siri kamligini ma’lum qiladi. Shoir “*Na six kuysin, na kabob*” maqolidan irsoli masal badiiy san’ati vositasida ijodiy foydalanadi.

Ishq ichinda, eyki, yuz muhlik balog‘a uchradim,

Bor sanga ming shukr vojib, gar g‘ami hijron emas [8. 228-229].

TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY

Ushbu baytda lirik qahramonning iztiroblarga chidamliligi, ishqida sobitligi mubolag‘aviy tasvirlangan. Unda quyidagi mazmun o‘z ifodasini topgan: “*Ishq ichra yuz turli halokatga eltuvchi balolarga uchradim, bu balolarning hijron g‘ami emasligiga ming shukr bo‘lsin!*”. Bunda shoir “muhlik balo”lar bilan “hijron g‘ami”ni qiyoslash, zidlash vositasida lirik chekinish hosil qiladi. She’r qahramoni ruhiy holati tasviriga e’tibor qaratadi.

*Vasldin qolg‘an buzug‘ ko ‘nglumni, ey hajr, asrakim,
Ganj aro yillar nihoniy asrag‘on vayronadur* [8. 174-175].

Ushbu baytda lirik qahramon hajrga murojaat etadi. Unda quyidagi mazmun o‘z ifodasini topgan: “*Ey hajr, vayrona yillar davomida o‘z bag‘rida ganj – xazinani asraganidek, sen ham vasldan benasib qolgan ko ‘nglimni asragin!*” Lirik qahramonning bu o‘tinching badiiy talqini uchun shoir vayronadagi xazina bilan bog‘liq tamsildan mahorat bilan foydalanadi.

*Ishq durrin ko ‘rguzur qotiq g‘amim, vahkim, erur
Dard-u g‘am daryosi ul javharki po ‘lodimda bor* [8. 171-172],

Ushbu baytda lirik qahramon qattiq g‘am ishq durlarini ko‘rsatishi, ya’ni ishqdagি mashaqqatlar insonni ma’naviy kamolotga eltishidan bahs etadi va o‘tli oh tortib, bunday asl modda, dard-u g‘amning daryosi bo‘lgan “*po ‘lodi*” – bemehr sevgilisida borligini ehtiros bilan bayon etadi. Baytda istioralashgan ma’shuqa tamsiliy sifatlar bilan tavsiflangani kuzatiladi.

*Ayni iffatdin o ‘shul pokiza gavhar jismida
Xil’at ermaskim, binafsh etgan kibi po ‘lod erur* [8. 187-188].

Ushbu baytda quyidagi mazmun o‘z ifodasini topgan: “*Ma ‘shuqaning pokiza gavhar kabi jismidagi kiyim emas, balki uning iffatidir. Bu go ‘yo banafshaning po ‘ladni kiyib olganiga o ‘xshaydi*”. Shoir binafshaning po‘latni kiyib olishi bilan bog‘liq hayotda uchramaydigan badiiy kashfiyotga asoslangan tamsil vositasida ma’shuqaning pokiza ekanligini vasf etadi.

Oshiqona g‘azallar tarkibidan o‘rin olgan ayni mazmundagi baytlarda qo‘llangan tamsil, irsolı masal singari badiiy tasvir vositalari yoki tushirib qoldirilgani e’tirof etilgan baytlar orasidagi ikkinchi siradan o‘rin olgan baytdagi lirik chekinishga aloqador badiiy manzara g‘azalning tarkibida o‘ziga xos alohidalikni hosil qiladi. Bunday baytlar g‘azaldagi umumiyl mazmunning ta’sirchanligini oshirishda muayyan poetik funksiya bajarsa-da, ularning tushirilib qoldirilishi umumiyl mazmunga jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Tuzilishiga ko‘ra parokanda g‘azallar tarkibida ayni mazmundagi baytlar birdan ortiq bo‘lishi mumkin. Bunda shoir ulardan birini tanlaydi. Yuqoridagi g‘azallarda beshinchi baytlarning tushurilib qoldirilishi mutloq tasodif bo‘lmay, balki bu baytlarning g‘azalning o‘rtasida joylashganiga borib taqaladi. Shoirning adabiy niyati sakkiz baytli g‘azalni yetti baytga aylantirish bo‘lganida ayni mazmundagi baytlar unga qo‘l keladi. «*Badoyi’ ul bidoya*» va “*G‘aroyib us sig‘ar*” devoni tarkibidagi “*Ul oyki, jafo nardini xo ‘blardin utubtur*” [8. 152] misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalning ham tahrirdan so‘ng beshinchi baytining tushirilishi fikrimizni quvvatlantiradi.

*Ul oyki, jafo nardini xo ‘blardin utubtur,
Yo rab, ne balo, mehr-u vafoni unutubtur?!
Og‘zing bila pista o ‘chashur puchlug‘idin,
Bilmonki, o ‘shul og ‘zi ochuq qayda butubtur?
Har dam qizig‘ ohim tafidin muztar o ‘lurmen,
O ‘tlug‘ nafas, ey voyki, ko ‘klardin o ‘tubtur.
Yillar labi la ‘ling g‘amidin joni haznim
Hasrat suyini xuni jigar birla yutubtur.
Ul nargisi bemor ila ul g‘unchayi xandon
Ko ‘zumni ho ‘l aylabtur-u og‘zim qurutubtur.
Aksini ko ‘ngul ko ‘zgusida ko ‘rdum-u o ‘ldum
Kim, g‘ayrin aning eviga nevchun yovutubtur?
Hijron kuni ishq ahlini o ‘rtarga magar charx
Otashkadasida shafaq o ‘tin yorutubtur.
Bulbul kibi xushgo ‘y Navoiyni qilib xor,*


Ul gulni ko 'rung, jonibi badgo 'y tutubtur. [8. 152]

G'azalning birinchi bayti lirik qahramonning Alloh taologa munojoti bilan boshlanib, suyukli yor oyga o'xshatiladi va uning jafo qilish bobida hammadan o'tganligi, mehr-u vafoni unutgani haqida so'z yuritiladi. Keyingi baytda ma'shuqaning ta'rifi keltirilib, uning lablari bilan pista og'zining puchligi, ya'ni ustki qismining yorilib turganidan kelib chiqib bahslashganiga e'tibor qaratiladi. Shoир bunday bahsdan ehtiros bilan kuladi. Haqiqatan, ma'shuqaning o'g'zi bilan pistadagi bu holatni qiyoslash, uning nazarida, nihoyatda kulgili. Shu bois u "Bilmadim, bu o'g'zi puchuq qayerda yetishibdi" tarzida pistaning ustidan kuladi. G'azalning uchinchi baytidan sakkizinchı baytigacha ma'shuqa go'zalligidan hayratga qolib hajr dardida yonayotgan oshiqning ruhiy holati haqida so'z yuritiladi. Uchinchi baytda lirik qahramon, o'zining o'tli nafasi ko'kdan o'tayotgan bo'lsa ham, ammo uning o'zi muzlab qolganini ta'kidlab, o'z holatidan hayratga tushadi. Keyingi baytda suyukli yorning labiga yetolmay hijronda qolgan oshiq g'am suvini o'zining jigar qoni bilan birga ichishi mubolag'aviy tasvirlanadi. Tushib qolgan beshinchi baytda, oshiqning ko'zlar yoshga to'lib og'zi qurugani tasvirlanib, bunga ma'shuqaning xandon otib kulishi sabab tarzida keltiriladi. Oltinchi baytda oshiqning ko'ngil ko'zgusida ma'shuqa jamoli aksini ko'rishi bilan o'lgani, ya'ni hayratda qolgan xususida so'z boradi. Negaki, ma'shuqa jamolining eviga, ya'ni oshiq ko'ngliga o'zining aksidan bo'lak narsalarni – "g'ayr"ni yaqinlashtirganidan u ajablanadi. Bunda shoир oshiq ko'nglidan tajalliy chog'ida ham hali dunyo go'zalliklarini mushohada qilish holi borligini badiiy tasvirlaydi. Yettinchi baytda falak hajr kunida oshiqlarni yoqish uchun o'txonasida quyoshdan olov sifatida foydalanishi haqida fikr yuritiladi. G'azalning so'nggi baytida lirik qahramon o'zining xor bo'laganligini aytib, bunga sabab u gulning tuhmatchilagini aytib qoyadi. G'azal o'zining turkona ohangi, o'rni bilan mutoyibali mazmunga egaligi bilan she'rxonga estetik zavq bag'ishlaydi. Shoир ushbu g'azalni yetti baytli holatga keltirish uchun 3-7-baytlardan birini tanlash imkoniga ega edi. Bizningcha, unga beshinchi baytdagi ma'shuqaga nisbatan qo'llangan "g'unchayi xandon" tavsifi qo'l keladi. Negaki, seviklining bunday fazilati pista timsoli vositasida ham oldingi baytlarda ifodalangan edi.

Xulosa. "Badoyi ul-bidoya"da sakkiz baytli hajmga ega bo'lgan 34 g'azalning "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlarda 7 baytli ko'rinishda namoyon bo'lgani, shuningdek, Navoiyning barcha g'azallari jamlangan 4 devonda 8 baytli g'azallarning uchramasligi muallif tahririning samarasi ekanligini anglatadi. G'azal tarkibidagi baytlarni tushirilib qoldirilishi bilan bog'liq tahrirlar tuzilishiga ko'ra parokanda g'azalllar ustida amalga oshirilganligi kuzatiladi. Bunda shoир tamsil, irlsol masal singari badiiy tasvir vositalari yoki lirik chekinishga aloqador badiiy manzara hosil qilgan baytlarni tanlaydi. Bunday baytlarning g'azalning umumiy mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmagani shoirning adabiy niyatiga muvofiq keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. –Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1970,
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 3 том. Тошкент: "ФАН". 1988.
3. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 14 том. Тошкент: "ФАН". 1998.
4. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. –Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1970.
5. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. –Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти. 1970
6. Эркинов А. Матниуносликка кирии. Тошкент, 1997
7. Eshonqulov H. Alisher Navoiy g'azallarida muallif tahriri: shakl va ma'no mukammalashivi. O'zMU 2022 1/6 309-312.
8. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 1 том. Тошкент: "ФАН". 1987.
9. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 4 том. Тошкент: "ФАН". 1989.
10. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 5 том. Тошкент: "ФАН". 1990.
11. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 6 том. Тошкент: "ФАН". 1990.
12. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin – XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirisasi. Oltin bitiglar – Golden scripts. 2021/3. B. 67-86.
13. Eshonqulov H. Alisher Navoijona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga xosliklar. Oltin bitiglar – Golden scripts. 2021/1. B. 69-86.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
<https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/>
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
15.06.2023 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"Sadreddin Salim Buxoriy" LLC
Address: Bukhara,
M.Ikboi street, 11